
Nomzodlarga ovoz berish boshlandi

O'zbekiston Respublikasining fuqarolar yig'ini saylovi to'g'risidagi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qaroriga asosan, bugun Rishton tumanidagi mahallalarda fuqarolar yig'ini raislari saylovi boshlandi. Mahallalarda saylovlar oshkoralik, muqobillik hamda teng saylov huquqi tamoyillari asosida o'tkazilmoqda. Fuqarolar raislikka nomzodlarning ma'ruzasi, kelgusi faoliyati dasturi bilan tanishib, yashirin ovoz berish orqali o'z saylov huquqlarini amalga oshirmoqda. Bugun tumanning 4 ta hududida "Yuqori Avazboy", "Yuqori Beshkapa", "Dehqonobod" va "Dahbed" mahallalarida saylovlar o'tkazilib, fuqarolar vakillari o'zlari munosib deb bilgan nomzodlar uchun ovoz berdilar. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi raisi Mahmudjon Mamjonovning aytishicha, saylov o'tkazilgan mahallalarda aholining faolligi kuzatilmoqda. Amaldagi qonunchilikka asosan, mahalla raislari uch yil muddatga saylanadi. Rishton tumani fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyasi tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan, 3 iyunga qadar mahalla raislari saylovlari tumanimizdagi barcha mahallalarda o'tkaziladi.

Bugun o'tkazilgan saylov natijalari bilan tanishing: "Yuqori Avazboy" mahallasida ochiq va oshkora bo'lib o'tgan mahalla raisi saylovida ko'pchilik ovoz bilan Murodjon Mastonov MFY raisi lavozimiga saylandi.

"Yuqori Beshkapa" mahallasida ochiq va oshkora bo'lib o'tgan mahalla raisi saylovida ko'pchilik ovoz bilan Zafarjon Abdurahmonov MFY raisi lavozimiga saylandi.

"Dehqonobod" mahallasida ochiq va oshkora bo'lib o'tgan mahalla raisi saylovida ko'pchilik ovoz bilan Olimjon Haydarov MFY raisi lavozimiga saylandi.

"Dahbed" mahallasida ochiq va oshkora bo'lib o'tgan mahalla raisi saylovida ko'pchilik ovoz bilan Muzaffar Tursunov MFY raisi lavozimiga saylandi.

2022-05-16 18:41:35